

**JISMONIY TARBIYANING UMUMIY VAZIFALARI****Otajonova Feruza Ismailjanovna***Farg'onan davlat universiteti sirtqi bo'lim uslubchisi,  
jismoniy madaniyat yo'nalishi 4 - kurs talabasi*

**Kommunistik tarbiya tizimining umumiyligi maqsadi** kishining har taraflama uyg'un barkamolligini ta'minlashdan, uni kommunizm qurilishida ijodiy mehnat qilishga va Vatan himoyasiga tayyorlashdan iborat. Bu maqsad rivojlanib kelayotgan moddiy ishlab chiqarish birinchi navbatdagi ob'ektiv talablarining amridir, kommunistik jamiyatda qobiliyatlar har taraflama kamol topgan kishilarga moddiy ishlab chiqarishni rivojlantirishga qodir (K.Marks va F.Engels. Asarlar, 4-tom, 335-bet). Kommunistik tarbiya tizimi umumiyligi maqsadining muhim tomonlaridan biri bevosita jismoniy tarbiyaga taalluqlidirki, u insonga jismoniy jihatdan barkamol bo'lishida yordam berishga da'vat etilgan.

Shaxsni har taraflama kamol toptirish g'oyasi ko'pdan-ko'p asrlar mobaynida jamiyatning ilg'or fikrli oqil kishilarini to'lqinlantirib kelgan. Qadimiy yunon faylasufi Arastu, O'yg'onish davrining insonparvarlari Rable va Montel, XVII asrda yashagan atoqli chek pedagogi Yan Amos Komenskiy, XVIII asr fransuz ma'riftparvarlari Jan jak Russo, XIX asrning utopik sotsialistlari Fure, Sen-Simon, Ouen, buyuk rus revolyusion demokratlari A.I.Gersen, V.G.Belinskiy, N.G.CHernishevskiy, I.A.Dobrolyubov, atoqli rus pedagoglari va vrachlari K.D.Ushinskiy, P.F.Lesgaft, V.V.Gorinevskiy va boshqa ko'pgina kishilar insonning ma'naviy va jismoniy qobiliyatlarini uyg'un rivojlantirish g'oyasini o'z asarlarida ilhom bilan ilgari surdilar va yoqlab chiqdilar. Lekin to sotsialistik sinfiy ijtimoiy formatsiyagacha bo'lган davrning hammasida tarixiy ijtimoiy munosabatlarning xarakteri sababli shaxsni har taraflama kamol toptirish g'oyasi shirin orzu – sotsialistik utopiyalik doirasidan nariga chiqolgani yo'q. Bu g'oya ilmiy O'Okommunizm asoschilarining asarlarida birinchi marta konkret mazmun kasb etib, O'Okommunistik asoslarida qurilgan jamiyat uchun revolyusion kurash praktikasi bilan bog'lanadi.

K.Marks va F.Engels pedagogik qarashlarda chinakam to'ntarish yasadilar. Ular inson rivojining va kun ko'rishning ijtimoiy-tarixiy negizi sifatida mehnatning o'z mazmunidan tarbiya, jumladan, jismoniy tarbiya zarurati kelib chiqishini ko'rsatib beradilar.

K.Marks va F.Engels burjuaziya jamiyatni rivojining taraqqiyot qonunlarini ochib berib, sinfiy jamiyatda bilim va tarbiyadan hukmron sinf o'z manfaatlari uchun foydalanadi, deb ko'rsatadilar. Bunday jamiyatda mehnatkashlar jismoniy va aqliy qibiliyatlarini har taraflama rivojalantirish uchun zarur bo'ladigan vositalarga va sharoitlarga ega bo'lmaydilar, ularga jismoniy va aqliy tanazzul xavfi tug'iladi. Hukmron sinflar esa mehnatkashlarni ekspluatatsiya qilish natijasida vujudga keltirilgan moddiy ne'matlardan foydalanish tufayli yaxshi tarbiya topadi.

Marks bilan Engels tarbiya masalalarini ishchilar sinfining taqdiri bilan, uning "kapitalizmning go'rktovi" sifatidagi tarixiy vazifasi bilan bevosita aloqada qarab chiqdilar. "Muvaqqat Markaziy Rassiya delegatlariga instruksiya"da Marks bunday deb yozgan edi: "...Eng ilg'or ishchilar o'z sinflarining, binobarin, insoniyatning kelajagi o'sib kelayotgan

ishchilar avlodining tarbiyasiga batamom bog`liq ekanligini to`la tushunadilar”. Marks tarbiya deganda o`z ichiga quyidagilarni oladigan tizimini tushungan6

“Birinchidan, *aqliy tarbiya*.

Ikkinchidan, gimnastika maktablarida va harbiy mashqlar bilan beriladigan *jismoniy tarbiya*.

Uchinchidan, *texnika ta'limi*”...

Bu ta'rifning ahamiyati bizning kunlarimizda ham g`oyat kattadir. K.Marks bu ta'rifda jismoniy tarbiyaning boshqa turlari bilan bir qatorga qo`yadi va uni pedagogik sistemaning uzviy qismi sifatida belgilaydi, bu sistemaning uzviy qismi sifatida belgilaydi, bu sistemaning maqsadi har taraflama rivojlangan kishilarni tayyorlashdan, insonni jamiyatning buyuk ishlab chiqaruvchi kuchi sifatida tayyorlashdan, insonni jamiyatning buyuk ishlab chiqaruvchi kuchi sifatida tayyorlashdan iborat.

K.Marks bilan F.Engels ishchilar sinfini jismoniy tarbiyalashni kapitalistik jamiyat sharoitlarida ham qisman amalga oshirish mumkin, deb hisobladilar. Bu imkoniyat, bir tomonidan, burjuaziyaning malakali ishchi kuchiga bo`lgan ehtiyoji bilan belgilansa, ikkinchi tomonidan, ishchilar sinfining uyushqoqlik ko`rsatib, bildirilgan talablari bilan belgilanadi.

“Tarbiyaga doir fabrika katlarining umumiyligi moddalari naqadar ayanchli holda, - deb yozgan edi K.Marks, - ular boshlang`ich ta'limni mehnatning majburiy sharti deb e'lon qildilar. Ularning muvaffaqiyati ta'lim va gimnastikan i jismoniy mehnat bilan, binobarin, jismoniy mehnatni ta'lim va gimnastika bilan qo`shish imkoniyati borligini birinchi marta isbotlab berdi” (razryad bizniki. – A.N.).

K.Marks bilan F.Engels tarbiyanı, jumladan, jismoniy tarbiyanı ishchilar sinfini revolyusion janglarga tayyorlash bilan bog`ladilar. Ular revolyuseonerning sihat-salomatligi to`g`risida, jismoniy tarbiyasi to`g`risida g`amxo`rlik qilishni partiyaviy burch deb hisobladilar.

Marks bilan Engels insonni har tomonlama o`stirishning bosh qismlarini aniqlab, ularning yo`nalishini belgilab berdilar. Yagona tarbiya tizimining bir qismi sifatida jismoniy tarbiya, deb ko`rsatishdi ular, dastavval mehnat yo`nalishiga egadir.

Marks jismoniy tarbiyaning mehnat faoliyati bilan aloqasiga qanchalik katta ahamiyat bergenligining dalili shuki, u kelgusida tarbiya ishlab chiqarish mehnatini gimnastikani ham o`rganish bilan qo`shadi, shu bilan birga bu ijtimoiy ishlab chiqarishni oshirish metodigina bo`lib qolmay, ayni paytda har tomonlama rivojlangan kishilarni vujudga keltirishning ham yagona metodi bo`lib qoladi, degan fikrni izhor etgan edi.

K.Marks odamni mehnat qilishga tayyorlashda jismoniy tarbiyaning juda katta roli borligi to`g`risidagi masalani chuqur va konkret yo`lga qo`ygan edi. Marks odamga jamiyatning ishlab chiqaruvchi kuchi sifatida qaraganida, ishchi kuchini tahlil etganida, bu ayniqsa ko`zga yaqqol ko`rinadi. “Ishchi kuchi yoki mehnatga layoqat deganda, - deb yozadi K.Marks, - biz organizm, insonning jonli shaxsi ega bo`lgan hamda biror iste'mol qiymatini ishlab chiqarayotgan paytda har gal ishga tushiradigan jismoniy va ma`naviy layoqatlarning jamini tushunamiz”. Marks jismoniy sifatlar deganda nimani tushunadi hamda ishchi kuchlarining sharoitlarini va ana shu fazilatlarini tarbiyalash jarayonini qanday tasavvur etadi? Marks bunday deb yozadi: “Ishchi kuchi uning tashqi ko`rinishi bilan amalga oshiriladi va

mehnatdagina o`zini real narsaga aylantiradi. Ishchi kuchini amalga oshirish jarayonida, mehnatda muayyan miqdorda muskullar, asablar, miya va hokazolar ishga solinadi. Bu miqdorning o`rni qoplanishi kerak. Bu zo`r berib kuch sarf qilish, zo`r berib bu kuchning o`rnini qoplashni ko`zda tutadi. Ishchi kuchining egasi, mehnatkashlar butun **kuchi va sihat-salomatligining** avvalgi sharoitlarida ertaga ham huddi o`sha jarayonni takrorlash imkoniyatiga ega bo`lishi kerak”. Demak, K.Marks odam mehnat qila olishi uchun o`zining kuchi va sihat-salomatligini takomillashtira borishi zarurligini, u o`zining tabiatini o`zgartirish kerakligini va Shu tariqa mehnatning muayyan tarmog` idagi ko`nikmalarni egallash uchun zarur sharoitlarni yaratishi lozimligini ravshan tasavvur etgan holda ishonchli tarzda ko`rsatadi. Buning uchun esa “muayyan bilim yoki tarbiya talab etiladi” Jumladan, jismoniy tarbiya talab etiladiki, undan jamiyat insonning jismoniy kamolotini boshqarish vositasi sifatida, ishchi kuchlarni qayta ishlab chiqarish vositalaridan biri sifatida foydalaniladi.

F.Engels o`zining harbiy masalalarga bag`ishlangan asarlarida jismoniy tarbiyaga katta e'tibor beradi. U yoshlarning jismoniy tarbiyasi masalalariga jiddiy qarashni hukumatdan talab qilib, deb yozgan edi: “Hozirgi paytda qilinayotganidek, yigirma yoshli yigitlarni qora terga botirib, o`zlarini ham terlab-pishib, ishda dag` allashib ketgan suyaklarini, muskullarini va paylarini avvalgi serharakat va epchil holiga qaytarishga behuda urinishdan ko`ra barcha sinflardagi o`quvchilarning a'zolaridagi elastiklik va epchillik yo`qolmasdan turib, ularga gimnastika snaryadlarida erkin gimnastika va mashqlarni muntazam ravishda hamda asosli o`rgatish yaxshiroq emasmi? Avval odamlarni mayib qilib, keyin esa harbiy xizmatda ularni tag`in qaddi-qomati kelishgan va serharakat qilishga intilish bema'nilik emasmi, axir? Basharti, boshlang` ich va o`rta maktablarda bu mayiblikning oldi olinsa, soldatlar uch chandon yaxshi bo`lishining chinligini rasmiy doiradagilar tushuntirmaydilarmi, axir?”.

K.Marks bilan F.Engels kishini kishi tomonidan ekspluatatsiya qilish, ishlab chiqarishning kapitalistik usuli tugatilgan sharoitlardagina, ya'ni sotsialistik, kommunistik jamiyatgina insonning jismoniy va ma'naviy jihatdan har tomonlama kamoloti ta'minlanishini ilmiy jihatdan asoslab berdilar.

Marks bilan Engelsning har tomonlama tarbiya to`g`risidagi va uning uzviy qismi – jismoniy tarbiya to`g`risidagi g`oyalari V.I.Lenin asarlarida yanada ijodiy rivojlantirildi.

V.I.Lenin Rassiya davlati tashkil topgan dastlabki kundanoq mehnatkashlarning jismoniy tarbiyasiga davlat ahamiyatiga ega bo`lgan muhim ish deb qaradi. Vladimir Ilich 1918 yilda vujudga kelgan Umumiyy harbiy ta'limni - aholining ommaviy harbiy-jismoniy tayyorgarligini amalaga oshiruvchi davlat tashkilotini mustahkamlashda faol ishtirok etadi.

Leninning bu g`amxo`rliги dastavval shu bilan izohlanadiki, u mehnatkashlarning jismoniy tarbiyasiga g`alaba qozongan sotsialistik revolyusiya sharoitlarida O'Okommunizm prinsiplarini ro`yobga chiqarishga bevosita aloqasi bor ish sifatida yondashadi.

V.I.Lenin tarbiyaga insonning ma'naviy va jismoniy qobiliyatlarining har taraflama kamolotini ta'minlaydigan sistema sifatida qaradi. V.I.Lenin “Karl Marks” degan maqolasida har taraflama tarbiyaning asosiy belgilarni ochib beradi. Bunda u K.Marksning kapitalistik jamiyatning ichida kelajak davr tarbiyasining kurtagi vujudga keladi, unda gimnastika ijtimoiy ishlab chiqarishni oshirish va har taraflama barkamol kishilarni vujudga keltirish metodining ajralmas elementi bo`ladi degan fikriga tayanadi.

Yoshlarimizning kelajagi, ularning hayoti, shu munosabat bilan ularni tarbiyalash masalalari Vladimir Ilichni chuqur hayajonlantiradi. 1920 yilning kuzida Klara Setkin bilan qilgan suhbatida u yoshlarning axloqi va tarbiyasi masalalariga burjuacha yondashishni qattiq tanqid qilib, “kommunizm o`zi bilan asketizmni emas, shod-xurramlikni eltadi”, “yoshlarga shod-xurramlik va bardamlik, sog`lom sport-gimnastika, suzish, ekskursiya, rangba-rang jismoniy mashqlar, turlicha ma’naviy qiziqishlar, o`qish, masalalarni tahlil etish, tadqiqot – iloji boricha bularning hammasi birga bo`lishi g`oyat zarur!” degan edi.

V.I.Leninning komsomol III s’ezdida so`zlagan nutqidagi yo`l-yo`riqlar jismoniy tarbiyaning Rassiya sistemasini qurishda g`oyat katta rol o`ynaydi. “Hozirgi zamон yoshlarini tarbiyalash, o`qitish va ularga ta’lim berish ishlarining hammasi ularni kommunistik axloqliк qilib tarbiyalashdan iborat bo`lsin”. Shundan keyin u: “Kommunizmni mustahkamlashva batamom qurish uchun kurashish kommunistik axloqning aosisidir. Kommunistik ruhda tarbiya berish, o`qitish va bilim o`rgatishning asosi ham mana Shundan iborat” deydi.

Lening bu yo`l-yo`riqlari komsomol III s’ezdining qarorida jismoniy tarbiya to`g`risida gap borgan qismida o`zining konkret ifodasini topdi. Yosh avlodni jismoniy jihatdan tarbiyalash yoshlarni kommunistik ruhda tarbiyalash umumiy sistemasining zaruriy elementlaridan biri ekanligini, bu sistema mukammal kamol topgan kishini, kommunistik jamiyat ijodkorini vujudga keltirishga qaratilganligini, jismoniy tarbiya quyidagi maqsadlarni: yoshlarni mehnat (ishlab chiqarish) faoliyatiga hamda sotsialistik Vatanni quroл

### **ADABIYOTLAR:**

1. A.D.Novikov. A.P.Matveev Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi. Toshkent «O`qituvchi» 1975. 1 том.
2. V.M.Kachashkin. Jismoniy tarbiya metodikasi. Toshkent «O`qituvchi» 1982 yil.
3. Jismoniy madaniyat dasturi. Toshkent 1998 yil.
4. I.A.Karimov. Buyuk maqsad yo`lidan og`ishmaylik. Toshkent «O`zbekiston» 1993 yil
5. I.Karimov. Halollik va fidoyilik - faoliyatimizning asosiy me’zoni bo`lsin. Toshkent «O`zbekiston» 1994 yil.
6. I.Karimov. Yuksak malakali Mutaxassislar - taraqqiyot omili. Toshkent «O`zbekiston» 1995 yil.
7. Barkamol avlod O`zbekiston taraqqiyotining poydevori. Toshkent 1997 yil.
8. Umumiy o`rta ta’limning davlat ta’lim standarti va o`quv dasturi. Toshkent 1999 yil, 6-maxsus son.
9. Yu.B.Ashmarin. Teoriya i metodika fizicheskogo vospitaniya M.»Prosvetenie» 1990 yil.
10. Usmonxujaev T.S. Jismoniy tarbiya darsi materiallari. « O`qituvchi» 1975 yil.